METODIK TAHLIL: INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI ESSELARNI TAQQOSLASH

Nurullayev Aloviddin Amrullayevich
ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi fakulteti magistri,
E-mail: alovuddin.nurullayev@gmail.com

Qabul qilindi: 03.11.2025
Ko'rib chiqildi: 04.11.2025
Tasdiqlandi: 05.11.2025

Esse maktab va universitetlarda yozma nutqni rivojlantirish va tahlil qilish vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Ingliz va o'zbek tillarida esse yozish metodikasi maqsad va talablar jihatidan o'xshash, ammo stilistik, struktura va talqin xususiyatlari bilan farq qiladi. Tadqiqotning maqsadi: ingliz va o'zbek tilidagi esselarni metodik jihatdan tahlil qilish, taqqoslash va samarali yozish usullarini aniqlash. Ingliz tilida esse — fikrni dalillash, argumentlarni keltirish va mantiqiy izchillikni namoyon qilish vositasi. O'zbek tilida esa esse — mavzu bo'yicha shaxsiy fikrni, tahlil va izchillikni namoyon etish. Milliy sertifikat baholashida 12 mezon bo'yicha maksimal 24 ball berilishi belgilangan edi. Hozirda bu 75 ballik tizimga o'zgartirilgan. Xalqaro baholash tizimida esse (IELTS) 5 mezon bo'yicha maksimal 9 ball berilishi belgilangan.

Xalqaro tizimlar ko'proq kommunikativlik va funksional yozma nutqni baholaydi. Milliy tizimlarda esa savodxonlik va grammatik to'g'rilik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Har ikkala tizim ham o'quvchining mustaqil fikrini yozma ravishda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro va milliy tizimlarning umumiy jihati – yozma nutqni aniq mezonlar asosida baholash va o'quvchining ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlashdir. Farqli jihati shundaki, xalqaro tizimlar fikrning izchilligi va muloqotdagi samaradorlikka urg'u bersa, milliy tizimlar savodxonlikni chuqur nazorat qiladi. Ta'lim amaliyotida bu yondashuvlarni uyg'unlashtirish o'quvchilarning yozma kompetensiyasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har ikki til esselarida fikr tuzilmasi (kirish–asosiy qism–xulosa) saqlanadi.

Qismlar	Ingliz tilidagi esse	O'zbek tilidagi esse
Kirish	Savol yoki mavzu bilan boshlanadi, tez-tez hook ishlatiladi	Mavzu tanishtiriladi, asosiy masala yoki savol qo'yiladi

Asosiy qism	Har paragraf bitta argument + dalil + misol	Har paragraf bitta fikr, dalil va tushuntirish bilan
Xulosa	Fikrni qayta tiklash, shaxsiy pozitsiya yoki umumiy xulosa	Yakuniy xulosa, shaxsiy munosabat va maslahat
Uslub	Rasmiy, akademik, neytral uslub	Badiiy yoki rasmiy-uslub aralash, mavzu va darajaga qarab
Dalillar	Ilmiy manba, statistik ma'lumot, iqtibos	Misollar, hayotiy voqealar, adabiy yoki ilmiy manba

Ingliz tilida: qisqa va aniq gaplar, obyektiv tahlil, akademik terminlar. - O‘zbek tilida: uzundan-uzoq iboralar ruxsat etiladi, badiiy va tasviriy vositalar keng qo‘llanadi. Har ikkala til esse yozishda mantiqiy bog‘lanish muhim:
- Inglizcha: however, therefore, moreover, in conclusion
- O‘zbekcha: shunday qilib, shuningdek, natijada, xulosa qilib aytganda

Ingliz tilida: talabalar akademik yozuv ko‘nikmalarini rasmiy metodlar bilan o‘rgatiladi: essay plans, drafting, revising, peer review O‘zbek tilida: ko‘proq badiiy va ijodiy yondashuv qo‘llanadi: matnni tahlil qilish, misollar asosida fikr tuzish, o‘z nuqtayi nazarini bayon qilish.

Ingliz tilida: IELTS, TOEFL, SAT, universitet esselarida aniq baholash rubrikalari mavjud: argument, coherence, grammar, vocabulary. - O‘zbek tilida: maktab va litseyda baholash ko‘proq mazmun, izchillik, grammatik to‘g‘rilik asosida amalga oshiriladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, har ikkala til esselarida fikr tuzilishi va mantiqiy izchillik ustuvor ahamiyatga ega. Farq uslubiy va ifoda vositalarida: ingliz tili — akademik va obyektiv; o‘zbek tili — ijodiy va badiiy uslubda. O‘qituvchilar ingliz tilida ko‘proq qurilishga va keltrilgan dalillarga, o‘zbek tilida esa mazmun va tasviriy ifodaga e'tibor qaratadi.

Ingliz va o‘zbek tilidagi esselar metodik jihatdan o‘xshash, lekin stil, ifoda va baholash mezonlarida farq qiladi. Ta'lim jarayonida ikki tilning esselarini taqqoslash talabalar yozma nutqini rivojlantirish va akademik yozuv ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda bu taqqoslash asosida ikki til uchun universal esse metodikasi ishlab chiqilishi mumkin.

Manbalar

1. 1. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson.

2. 2. Bailey, S. (2011). Academic Writing: A Handbook for International Students. Routledge.
3. 3. Xolbekova, D. (2020). O‘zbek tili grammatikasi va esse yozish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
4. 4. IELTS Official Practice Materials. Cambridge University Press, 2019.